

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

BOSHLANG'ICH TA'LIM KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Pedagogika fakulteti dekani
_____ prof.To'raqulov X.A.
“ _____ ” _____ 2011 y.

141600 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

**Boshlang'ich sinf mehnat darslarida o'quvchilarning bilish faoliyatini
shakllantirish metodikasi** mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Ibrohimova D.

Ilmiy rahbar: Haydarov D.

Ilmiy maslahatchi: dos. O'rozov B

Ishni himoyaga tavsiya etaman: Haydarov D. _____
(илмий раҳбар исми ва шарифи) (имзо)

BMI _____ kafedra
yig'ilishining qarori bilan (Qaror № 10, 20.05.2011 y)
himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

prof.Jumanazarov U.A. _____
(Ismi va sharifi) (imzo)

Jizzax - 2010

Reja

Kirish

I Bob. Boshlang'ich sinf mehnat darslari orqali o'quvchilarning bilish faoliyatlarini shakllantirish

1. I-IV sinf o'quvchilarining bilish faoliyatlarini shakllantirish vazifalari

2. Mehnat darslarida o'yinchoqlar yasashning asosiy xususiyatlari

II Bob. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida o'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirish usullari

1. I-IV sinf o'quvchilarining bilish faoliyatlarini rivojlantirish usullari

2. Mehnat fanidan dars ishlanmalari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

Malakaviy bitiruv ishining dolzarbligi: O'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish masalasi o'quv jarayoni oldida turgan asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Uni muvaffaqiyatli hal etish umumiy ta'lim maktablarida o'quv – tarbiyaviy ishlar saviyasini “Ta'lim to'g'risida” gi Qonun talablari darajasida ko'tarishni talab qiladi.

Ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy – madaniy o'zgarishlar ta'lim – tarbiya ishlarini olib borish jarayonida bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Hozirgacha maktablarimiz yangi darsliklar, qo'llanmalar, ko'rgazmali qurollar, ta'limning zamonaviy vositalari va boshqa o'quv qurollari bilan yetarlicha ta'min qilinmagan.

Bu esa o'quvchilarga mukammal bilim berish va ayniqsa ularning bilim olish faoliyatlarini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mavjud qiyinchiliklarni bartaraf etish o'quv jarayonini davr talablariga javob beradigan dastur va yangi darsliklar bilan to'liq ta'minlash asosida takomillashtirib, o'qitish va ta'lim olish davomida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini yanada faollashtirish zarurligini talab kiladi.

BMI ning maqsadi: boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faoliyatlarini mehnat darslari orqali rivojlantirish yo'llarini izlash.

Tadqiqot obyekti: umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflari mehnat darslarida o'quvchilarning bilish faoliyatlarini o'stirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: boshlang'ich sinflar mehnat darslarida o'quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlash mazmuni, shakli va uslublari.

Bitiruv malaka ishining vazifalari: boshlang'ich sinf mehnat darslarida o'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy – nazariy, amaliy, uslubiy mavjud holatni o'rganish va chuqur tahlil qilish; o'quvchilarning bilish faoliyatlarining ijtimoiy – pedagogik

mohiyatini ilmiy asoslash; mehnat darslarida o'quvchilarning bilish faoliyatlari mazmunini ishlab chiqish; tegishli uslublar, o'qitish shakllari va vositalarni aniqlash; YaPT orqali bilish faoliyatini rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish; tadqiqot mavzusining o'qitilishi samaradorligini oshirishning pedagogik va axborotli ta'minotini o'rganish hamda tegishli metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Qo'yilgan bu vazifalarni hal qilish uchun quyidagi **ilmiy – tadqiqot metodlaridan** foydalanildi:

- o'quvchilar bilish faoliyatlarini yanada takomillashtirishga va samaradorligini oshirish to'g'risidagi Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, me'yoriy hujjatlar, tadqiqot mavzusiga oid adabiyotlarni tahlil qilish;

- ilmiy pedagogik kuzatishlar olib borish, suhbat, anketa va test so'rovlari o'tkazish.

Tadqiqotning metodologik asosini: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, asarlari, mavzuga oid Davlat Dasturlari, Qadimiy Sharq mutafakkir olimlarning boy merosida olg'a surilgan ilg'or g'oyalari, yosh avlodni to'g'ri tarbiyalashga qaratilgan fikrlari, hozirgi yetuk mutaxassislarning qarashlari tashkil etadi.

Bitiruv malaka ishining asosiy ilmiy yangiligi: boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faoliyatlarini rivojlantirishda mehnat darslarining o'rnini asoslandi; o'quvchilar bilish faoliyati yaxlit pedagogik muammo ekanligi tadqiq etildi; muammoning mazmun – mohiyatini ochib beruvchi tushunchalar aniqlandi; bilish faoliyati jarayonining pedagogik va axborotli ta'minoti, o'qitish uslublari ishlab chiqildi; bilish faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlandi, tegishli metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ahamiyati:

- o'quvchilar bilish faoliyatlarini mehnat darslari orqali samaradorligini oshirishning pedagogik va axborotli texnologiyasi ishlab chiqildi.
- Mehnat darsida va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirish yo'llari ishlab chiqildi.
- Mehnat darslarida o'quvchilar bilish faoliyatlari mazmuni, tashkil qilish shakllari va vositalari boyitildi.

Bitiruv malaka ishi tuzilishi va mazmuni: Ish kirish, 2 ta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I Bob. Boshlang'ich mehnatni o'rgatishda o'quvchilarning bilish faoliyatlarini shakllantirish

1. §. I – IV sinf o'quvchilarining bilish faoliyatlarini shakllantirish vazifalari

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri barcha o'quvchilarda bilish faoliyatini shakllantirishdan iborat. Har bir o'qituvchi o'qitmoq va o'rganish kerakligini ana shu sabablarga ko'ra unutmaydilar.

Boshlang'ich ta'lim jarayoni mustaqil davlatning ta'lim-tarbiya tizimida umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. Inson hayotining serunum davri bo'lgan boshlang'ich sinfda xotiraning kuchi nihoyada o'tkir. Bilim o'rganishga ishtiyoq bo'ladi.

Oliy majlisning IX sessiyasida O'zbekiston rivojlanishining yana bir muhim istiqboli belgilab berilgan edi. Oliy majlisning bu sessiyasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ni qabul qildiki, bu hujjatlar O'zbekiston kelajagini yaratish sohasidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi. Dasturda ta'kidlanganidek, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim – tarbiya berayotgan o'qituvchi nihoyatda bilimli, kuchli, bolaning individual – psixik taraqqiyot yo'llarini chuqur biladigan pedagog – psixolog, yuksak mahoratli, bola qalbiga yo'l topa oladigan tarbiyachi blo'mog'i lozim. Agar buning aksi bo'lsachi? Sinfdagi bolalar orasida o'zlashtirmovchi o'quvchilarning vujudga kelishiga sabablar nima? Degan savolga yuqoridagi jumla asosiy javob bo'ladi. O'zlashtirmovchilikni keltirib chiqaruvchi psixologik sabablar orasida o'qituvchilarning ta'siri juda katta:

- darsga tayyor bo'lmagan holda dars o'tish, o'z ustida kam ishlash;

- o'qitish, o'rgatish uslublarining bir xilligi yoki kamligi. O'quvchilarda o'rganilayotgan material bo'yicha qiziqish o'yg'ota olmaslik, diqqatni jalb qila olmaslik;
- darsni o'tish mobaynida mavzuni o'quvchilarga yetkazib berishda ketma –ketlikning, uzviylikning yo'qligi o'qitish jarayonida zarur didaktik talablarini, hissiy o'qitishni saqlamaslik;
- o'tilgan materiallarni mustahkamaslik, uy vazfalarni pala – partish ko'rsatish yoki tushuntirish, o'z ustida ishlashnii rivojlantirmaslik;
- o'z o'quvchilarining o'ziga tegishli bo'lgan individual psixologik xususiyatlarini bilmaslik, o'zlashtirmovchi o'quvchilar bilan alohida ishlamaslik.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o'qituvchilarimiz 40 – 45 daqiqa davom etadigan darsni har taraflama ham didaktik, ham psixologik, ham tarbiyaviy, mantiqiy jihatdan o'z rejasiga o'z qurilishiga, o'z maqsadiga ega bo'lgan holda o'tishi lozim.

Hayot ko'rsatmoqdaki, maktablarda muammolarni muvaffaqiyatli hal etish imkoniyatlari mavjud bo'lsada, undan har doim ham foydalanavermaymiz.

Ishning samaradorligi ko'p jihatdan o'quv jarayonini boshqacha bilishda ko'rinadi. Kuzatishlar shu narsani ko'rsatadiki, ba'zi boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quv jarayonini ilmiy va metodik jihatdan boshqarishga e'tibor bermasdan, shablon usulida rejada ko'rsatilgan mavzuni o'tib berish bilan cheklanib qoladilar.

Darsning borishida bolaning o'quv faoliyatini qanday pog'onada bilish jarayoni qanday davom ettirmoqda, unda vujudga kelgan muammolarni qanday bartaraf etish zarurligi to'g'risida bosh qotirib ham o'tirmaydilar.

Bu holat bolaning bilishga bo'lgan intilishlarini susaytiradi, izlanish, diqqat, fikr yuritish kabi faoliyatlarining murg'ak holatda qolib ketishiga sabab bo'ladi.

Shu sababli o'qituvchi bilimlar, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayonini boshqarishda erkinlik. Boshqa imkoniyatlar singari bilib olish zaruriyati sifatida xizmat qiladi.

Boshqacha qilib aytganda o'qituvchi o'zlashtirish jarayoni qonuniyatlarini qancha yaxshi bilib olsa, u jarayonni boshqarish yo'llarini tushungan holda ishonch bilan tanlaydi va amalda undan maqsadga muvofiq foydalanadi. Bunda o'qituvchi qachon va qayerda vaziyatni o'zgartirish mumkin yoki qayerda zaruriyat qonunlariga albatta e'tibor qilish kerakligini bilib oladi.

Masalan, o'qituvchi birinchi sinfda yangi bilish amalini kiritishga o'qituvchi uni tashqi moddiylashgan shaklda ko'rsatadi. Materiallarning aniq shaklini o'qituvchi erkinlik bilan tanlay oladi.

Agar o'qituvchi o'zlashtirish qonuniyatlariga amal qilmasa, u holda o'z qo'ygan maqsadiga erisha olmaydi, o'zlashtirish jarayonini samarali boshqarish ham yuzaga kelmaydi.

Tabiiyki, har bir o'qituvchi o'quv jarayonining qo'yilgan maqsadga erishuvidan manfaatdordir. Shuning bilan birgalikda o'quv jarayonini samarali boshqarishni ta'minlovchi talablarni albatta bilmog'i lozim. Bunda o'qituvchi o'zining kundalik amaliy o'qitishda ongli va maqsadga muvofiq hisobga oladi. Boshqarishning umumiy nazariyasiga muvofiq quyidagi talablar tizimi bajarilsa o'quv jarayoni samarali boshqarishga erishish mumkin bo'ladi.

1. Boshqarishning maqsadini ko'rsatish;
2. Boshqarilayotgan manbaning dastlabki holatini o'rnatish;

3. Jarayonning asosiy o'tish holatlarini hisobga olib, harakat dasturini aniqlash va joriy etish;
4. Boshqarish jarayonining holati haqida ma'lum xarakteristik tizim bo'yicha axborotlar olishni, ya'ni tizimni teskari aloqani ta'minlash;
5. Teskari aloqa natijasida olingan axborotlarni qayta ishlash;
6. Tartiblovchi ta'sirni yuzaga keltirish;
7. Bu talablarni amalga oshirishni ta'min etish.

Bu talablar umumiy tavsifga ega bo'lib, ixtiyoriy jarayonni boshqarishga tegishlidir. Ularni aniq tadbiq etish boshqarilayotgan jarayonning mohiyatini aks ettiruvchi maxsus bilimlarga tayanishni talab qiladi. Biz qaralayotgan jarayon – o'zlashtirish jarayoni hisoblanib, o'quvchilar bilish faoliyatlarining rivojlanishiga katta imkoniyatlar beradi.

Shu munosabat bilan ko'rsatib o'tish kerakki, o'qituvchi bilimlarni va boshqa bilish faoliyatlarini shakllantirish bo'yicha rejalashtirganda asos uchun dars emas, balki butun o'qitish davri (boshqarish davri) ni olish kerak.

O'qitish davri deganda o'qituvchi va o'quvchining oldindan rejalashtirilgan bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha o'tkaziladigan zarur harakatlar to'plami tushuniladi.

Endi, o'qituvchining yuqoridagi talablar asosida o'qitish davrini tashkil etish uchun nimalar qilish kerakligiga to'xtab o'taylik.

Talablarning birinchisini bajarish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak bo'ladi.

a) yangi materialni o'rganish uchun o'qituvchi masalalar tanlaydi, bunday o'quvchilar masalani yechishda foydalanadilar.

b) har bir masala o'z yechimi uchun aniq bilish harakatlarini va ko'nikmalarini talab qiladi. Bundan keyin masalalar yordamida qaysi bilish harakatida bu bilimlardan foydalanish mumkinligi aniqlanadi.

v) Tanlangan bilish harakatlari va unga kiritilgan bilimlar qanday sifatlarga ega bo'lishini ko'rsatish kerak bo'ladi.

O'zlashtirish maqsadida berilgan masalalarni qarashda so'nggi qadam – o'zlashtirishga yo'naltirigan faoliyat qanday sifatlarga ega bo'lishini ko'rsatishdan iborat. Bu holda so'zsiz qaralayotgan bilish faoliyatlarining oxirgi holatiga qo'yilgan quyidagi talablarni ko'rsatish mumkin:

a) u shakli jihatdan aqliy darajagacha yetkazilgan bo'lishi lozim;

b) umumlashmasi bo'yicha mumkin bo'lgan barcha imkoniyatlarni jalb etgan bo'lishi, ya'ni maksimal umumlashgan bo'lishi lozim;

v) faoliyatni yetarlicha tezroq bajarish va natijada avtomatlashtirishni ta'minlash va unda kiritilgan harakatlarni qisqartirishga erishmoq kerak.

O'quvchilarning bilish faoliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ba'zi masalalarni qarab chiqaylik.

1. Bilish faoliyatining dastlabki holati.

Dastlab bilimlarni o'zlashtirish jarayonini boshqarishda har bir o'quvchi bilish faoliyatlarining dastlabki holatini (saviyasini) hisobga olish zarur.

Amalda hamma uchun bir xil bo'lgan o'zlashtirish jarayoni mavjud bo'lib, u o'quvchilarning birortasi uchun ham qulay emas va u "O'rta" o'quvchiga mo'ljallangan, ammo bunday o'quvchi haqiqatda mavjud emas. Chunki. "o'rta" deb ataluvchi o'quvchi ta'lim jarayonida o'zgarib, ilg'or o'quvchilar safiga o'tib ketishi tabiiydir.

O'quvchilar yangi materialni o'zlashtirishga turlicha tayyorgarlik bilan kirishar ekan, bunda o'qituvchi bolalardagi jo'shqinlik va g'ayratlariga albatta tayanishi kerak. Ammo bolalardagi shaxsiy xislatlarni e'tiborga olmasdan iljimiz yo'q.

O'qitishda o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olmaslik ularda turli ko'rinishdagi qiyinchiliklarning paydo bo'lishiga olib keladi va qo'yilgan maqsadga erishishni qiyinlashtiradi.

O'quv jarayonini tashkil etishning odatdagi usuli bilan o'quv ishlarini shakllantirish ancha qiyin masala bo'lib, mavjud imkoniyatlarni izlash ayniqsa ta'lim berishning zamonaviy vositalaridan mukammal foydalanish bilan bu qiyinchiliklarni to'liq bartaraf etish mumkin.

2. O'quv faoliyatlarini shakllantirish yo'llari.

O'qituvchilarni ishlarini kuzatib shuni bildimki, muvaffaqiyatli o'qitish uchun zarur sharoitlar yaratish ishiga har doim ham e'tibor berilmaydi. Ko'pchilik o'qituvchilar tushunib yetmasdan bola maktabga keldimi, u o'qituvchi aytgan barcha ishlarni qilishi kerak degan xulosaga keladi.

Shunday o'qituvchilar ham uchraydiki, ular bolalardagi salbiy hayojonga tayanadi. Bunday hollarda o'quvchi o'zini turli ko'ngilsizliklardan, masalan, o'qituvchisining yoki ota – onalarning jazolashidan yomon baho olish va boshqalardan o'zini chetga olishga harakat qiladi. Bunday holda o'quvchida asta – sekin maktab va o'qituvchi oldida qo'rqish shakllana boshlaydi. O'quv ishlari xursandchilik keltirmasligini bilgan bola itoat etishga urina boshlaydi. Bola uchun maktabga bo'lgan odatlardan voz kechish ancha qiyin o'tadi.

O'quvchini tushunish uchun uning o'rniga o'zimizni qo'yib qarashimiz kerak bo'ladi. Masalan, biz o'zimizni har kuni qoidaga ko'ra to'yib uxlamagan, qish kunlari ertalab qorong'uda turib maktabga boradigan o'quvchi deb tasavvur qilaylik.

Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining asosiy vazifasi "bolaning yuragini ochish", qalbiga kira bilish ularda yangi materialni o'zlashtirishga hohish uyg'otish, uning ustida ishlashga o'rgatishdan iborat.

Hatto eng qobiliyatli insonning boshi ham yaxshi ta'limsiz hyech narsa emas, degan gapda jon bor. Biroq insonga shunday ta'limni ta'minlash uchun uni yaxshi o'qitish, bu kabi o'ta muhim pedagogik jarayonni to'g'ri amalga oshirish kerak.

O'quvchilarning ta'lim jarayonida rivojlanishi to'g'risida to'xtalar ekan, amerikalik psixolog Dj. Bruner shunday yozadi: "Biz fanlarni dunyoga kichik jonli kutubxonalarni keltirish uchun yamas, balki o'quvchining o'zini matematik fikrlash, muammolarni tarixchi misoli o'rganish, bilim olishda ishtirok etishga o'rgatish uchun o'qitamiz. **Bilish – bu jarayon, mahsul emas**"¹.

Ma'lumki, bilish faoliyatining subyekti o'quvchi sanaladi, shu bois ijtimoiy-pedagogik asoslarga ega bo'lgan ta'lim markazida uning shaxsi, uning ongi, uning ham o'rganilayotgan olamga, ham bilish faoliyatidagi hamkorlariga: o'quvchilar va uning ta'lim olishini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi o'qituvchilarga munosabati yotadi. Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, Uyg'onish davri Sharq mutafakkirlari ta'lim jarayoni, o'qitish, ta'lim berishda o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasidagi munosabat masalasiga alohida e'tibor qaratishgan. Jumladan, ibn Sino ta'lim jarayoni haqida gapirar ekan, ta'limda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berish zarurligini ta'kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib quymaslik;
- ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

¹ Цитата по книге: Малькова Е. А. Современная школа США – 86.

Beruniy esa o'quvchiga bilim berishda:

- o'quvchini zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;
- uzviylik, izchillik;
- yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etish kerakligini uqtiradi.

Ushbu fikrlardan ma'lum bo'ladi-ki, ta'lim jarayoni o'qituvchining o'rgatuvchilik faoliyatini va o'quvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu o'rinda bu jarayonlarning tahliliga e'tibor qarataylik.

Ta'limda **o'qituvchining boshqaruvchilik roli** o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarning boy tajribasini, insoniyatni asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda ahloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarini egallashni shart qilib qo'yadi.

Bularning barchasi o'qituvchining ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarni amalga oshirishda o'z aksini topmog'i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida o'qituvchi o'z o'quvchilariga qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rgatadi, o'quv faoliyatida ularni malaka va ko'nikmalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u o'quvchilarda dunyoqarash va ahloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarini shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O'qituvchining faoliyati o'quvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yana-da, aniq qilib aytgan-da, butun o'quv jarayonini **rejalashtiradi**, ushbu jarayonda o'quvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni **tashkil etadi**, o'quvchilarga qiyinchiliklarni yengib o'tishda **yordam beradi** hamda ularning bilimlarini va butun ta'lim jarayonini **tashxis qiladi**.

O'z navbatida o'quvchilarning faoliyati o'quv jarayonida o'rganishga, bilim, malaka hamda ko'nikmalarni egallashga, o'zini jamiyatda foydali

faoliyatga tayyorlashga yo'naltiriladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faoliyati ko'pqirrali yo'nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Ta'limda o'quvchilarning faoliyati haqida gap borganda, o'quvchining **bilish faolligi** tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi.

O'quvchining bilish faolligi uning bilish jarayonidagi intellektual mulohazasida, umumiy va alohida topshiriqlarni bajarishda namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar o'quvchining faqatgina yuqori darajadagi bilim olishini kafolatlabgina qolmay, balki uning hayotiy faoliyati, ya'ni o'quvchi shaxsining shakllanishi, uning amaliyotga, hayotga bo'lgan faol munosabati uchun xarakterlidir. Shu sababli **bilish faolligini oshirish insonning faol hayotiy qarashlarini shakllantirish** deb bema'lol aytish mumkin.

O'quvchining bilish faoliyatining yana bir farqli xususiyati uning kechish xarakteridir. O'quvchining bilish faoliyati maqsadi ham, mazmuni ham, usullari ham dasturga kiritilganligi bois o'quvchi jalb etiladigan ta'lim jarayoni turlicha kechishi; subyekt (o'quvchi) kuchi, faolligi, mustaqilligi turlicha sarf etilishi bilan borishi mumkin. Ayrim hollarda uning jarayoni taqlidiy, reproduktiv, boshqalarida – izlanishli, uchinchilarida ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Aynan faoliyat jarayonining kechish xakteri uning oxirgi natijasi – egallangan bilim, malaka, ko'nikmalari xarakteriga ta'sir etadi.

O'quvchining bilishi, xuddi yetuk ilmiy bilish yo'li kabi haqiqat o'quvchi tomonidan fandagi faktlar, ilmiy kashfiyotlarni o'rganish, ularning tarixiy yo'lini o'zlashtirish yordamida kechadi. Insoniyatning umumlashtirilgan bilimlari tizimi ta'lim davomida o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi va ular ilmiy haqiqat tashuvchilariga aylanadilar.

Insonning asl ijtimoiy mulki sifatida faoliyatining muhim belgisi faoliyat subyektining atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri va ma'lum boyliklar yaratuvchi

faoliyatning qayta yaratuvchi xarakteridir. O'quvchilarning ta'lim muassasi (maktab, akademik lisey, kasb-hunar kolleji)dagi bilish faoliyatining xususiyati shundaki, uning natijasi hamma vaqt ham moddiylashgan "mahsul"ga ega emas va o'quvchining o'zi uni hamma vaqt ham his etmaydi – javobi uchun yomon baho olgan o'quvchining xafa bo'lib, "men o'qidim o'rgandim! Adolatdan emas" degan fikrni qat'iy takrorlashi bejiz emas.

Faoliyat maqsadlari, uning maqsadli farazlari ta'limning uzoq muddatli jarayonini belgilaydi, uning ijtimoiy yo'nalganligini obyektiv ifodalaydi va uning pirovard natijalarini belgilab beradi. Shu bilan birga isbotlanganki subyektiv tarzda bu murakkab va o'quvchining tajribasidan uzoq bo'lgan maqsadlar hamma vaqt ham anglab yetilmaydi va o'quvchining o'zi faoliyat subyekti sifatida maqsadlarni bevosita tashuvchi bo'lmaydi. O'qishning ijtimoiy yo'nalganligi o'quvchining faoliyati bilan belgilanadi, o'quvchi qanchalik yosh bo'lsa, bunday belgilanish darajasi yuqori bo'ladi.

Bu jarayonni bilish bosqichlaridan iborat bo'lgan tarkibiy qismlarga (yoki bo'g'inlarga) ajratish mumkin. O'quvchi bilmaslikdan bilishga qarab, to'la va mukammal bo'lmagan bilimdan to'la va mukammal bilimga o'tishi lozim.

O'qitish jarayoni to'rtta asosiy bo'g'inlardan tashkil topgan:

- 1) o'zlashtirilishi lozim bo'lgan ma'lumotni idrok qilish;
- 2) uni fahmlab olish, tushunchalarning hosil bo'lishi;
- 3) bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi;
- 4) hosil qilingan ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash.

Bu bo'g'inlar o'quvchilarning ma'lum bir yo'nalishdagi bilish faoliyati bilan bog'langan bo'lib, u o'qituvchining boshqaruvchilik qobiliyatini taqozo etadi.

O'rganilayotgan ma'lumotni idrok etish. Bu bo'g'inning vazifasi – o'rganilayotgan obyekt haqida tasavvur hosil qilish. Tasavvurning hosil bo'lishi esa, bilish vazifasining to'g'ri qo'yilishini talab qiladi. Ya'ni, o'quvchi: nimani bilishi, nima uchun bilishi, qay tariqa bilib olishi lozim. Bilish vazifalarini qo'yish bilan bir vaqtda **o'quvchida bilishga bo'lgan qiziqish va ehtiyoj hosil qilinadi.**

Bilishga qiziqish o'qishning eng muhim va eng qimmatli motivi sifatida bolaning maktabga, darslarga, o'z bilish faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatiga ko'maklashadi.

O'quvchining bilishga qiziqishi motiv sifatida rivojlanishning uzoq yo'lga ega bo'lishi mumkin: ayrim o'quv harakatlari ta'sirchisidan to butun faoliyatining ustivor motivigacha. Hatto o'qishning yetakchi motivlaridan biriga aylanib, qiziqish shaxsning ma'naviy boyishiga ko'maklashuvchi umumiy yo'nalganligining ahamiyatli qismiga aylanishi mumkin. Har qanday motiv singari bilishga qiziqish ajralgan holda rivojlanmaydi, uning tiklanishi boshqa motivlar bilan birga kechadiki, qiziqish ular bilan boyiydi va ularga ijobiy ta'sir etadi.

Bilishga qiziqishning **ijtimoiy** motivlar bilan o'zaro aloqasi jiddiy bo'lib, ular orasida o'qituvchi va o'quvchilar bilan muloqot alohida rol o'ynaydi. Ijtimoiy motivlar keng, uzoqlashgan, istiqbolli, ularning lisoniy ifodasi boshlang'ich sinflardayoq paydo bo'ladi (“ma'lumotli bo'lishni istayman”).

Ahloqiy motivlar – juda muhim guruh. Ularda shaxs shakllanishining jiddiy jihatlari – uning, avvalo, odamlarga, faoliyatga, o'zining jamiyatdagi va jamoadagi o'rniga nisbatan ahloqiy munosabatlari ifodasini topadi.

Muloqot motivlari – yana bir guruh. O'quvchilarni o'qishga real undaydi, umuman maktabga ijobiy munosabat zamirida yotadi.

O'quv motivlari – sof shaxsiy tuzilma, biroq ular predmetlar dunyosidan boshlanadi (A.N.Leontyev), shunchaki hosil bo'lmaydi.

Bilish motivlari – tobora xarakterli guruh, zero u bilish – o'quv predmetiga bevosita munosabatni ifodalaydi. Bunda tobora ahamiyatlisi bilishga qiziqish va ehtiyojlar sanaladi. O'quvchiga “yangi narsani bilish”, “o'zini bilimda ilgarilashini ko'rish”, “ilmga sho'ng'ish” o'zi qiziqqan fanning nazariy asoslarini tushunish juda qiziq. Ta'limning bu motivlarining real ahamiyatini ortiqcha baholash qiyin, aynan ular o'quvchining o'zini o'qish uchun “kashf etadi”. Bilishga qiziqish o'quvchining faolligi, ta'limda mustaqilligi asosida yotadi, maktabga umuman muhabbatni shakllantiradi. Bilishga qiziqish rivojlanishning yanada yuqori bosqichida shaxsning barqaror qirrasini, sifati bo'lib, ko'pincha bilish faoliyatiga izchil intilish bilan xarakterlanadi. Bunda ayniqsa o'quv materialini mazmunidan kelib chiqadigan rag'batlash va barqarorlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim mazmunining bilishga qiziqishni uyg'otuvchi rag'batlashlariga quyidagilar kiradi: o'quv materialining yangiligi, bilimlar mazmuniga tarixiy yondashuv, ularning zamonaviy fan yutuqlariga muvofiqligi hamda amaliy ahamiyati. Bu stimullarning har biri V – IX sinflarda turli fanlarda turlicha namoyon bo'lish darajasiga ega bo'lib, qiziqishga alohida ajratilgan holda emas, balki boshqalari bilan birgalikda ta'sir etadi, shu bois o'quvchilar ko'z oldida o'zining barcha tomonlari ko'p qirraliligi bilan namoyon bo'lgan ta'lim mazmuni qiziqish uyg'otishning ahamiyatli omili sanaladi.

O'quv materialini **yangiligini** qiziqishga ta'siri hammaga ayon. O'quvchi uchun hali o'zi ko'rib yoki eshitib bilmagan har qanday narsa va hodisa yangi hisoblanadi. O'zi bilmagan yangi faktlar, hodisalar bilan tanishib, yangi axborot olib, o'quvchi tabiiyki hayratlanish, quvonish hissini to'yadi.

O'quv materialini o'rganishda **tarixiy yondashuv** bilan darslarda qiziqish paydo bo'ladi. Chunki har bir narsa va hodisalar o'zining taraqqiyot jarayonida ma'lum bir davrlarni bosib o'tgan. Biror bir narsa yoki hodisa haqida gapirilganda, uning qanday paydo bo'lganligini bilish kishida, shu jumladan o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi. Bu esa ayniqsa, fanlar tarixidagi yangi, noma'lum faktlar, olimlarning hayot va ijod yo'li, ilmiy xarakterdagi ma'lumot hamma vaqt o'quvchilarning diqqatini o'ziga tortadi - ular o'quvchilarning ko'zlariga ilmiy izlanishlar darajasiga ko'tariladi, fan taraqqiyoti jarayonini yorqin aks ettiradi.

Masalan, dastlabki astronomik bilimlar qadimgi Misrda Nil daryosining toshishi vaqtini bilish asosida kelib chiqqanligi hammaga birday qiziq.

Ma'lumki, Misrda qishloq xo'jaligi ishlari boshlanishidan avval Nil daryosi toshadi. Bu voqeya yorqin yulduz Sirius ertalabki shafaqda ko'ringandan ikki-uch kun keyin sodir bo'lar edi.

Astronomlar Siriusni ko'rishlari bilan Misr aholisini Nilning toshishi va ekish mavsumini boshlanishi haqida xabardor qilar edilar. Demak, Nil daryosining toshish mavsumini hisoblash ehtiyoji Misr astronomiyasini yaratdi.

Yoki odamning paydo bo'lishi va rivojlanishi masalasi o'rganilar ekan, unga tarixiylik nuqtai nazaridan yondashuv ushbu masalaga qiziqish hosil qilishi, tabiiy.

Jahonning yetakchi antropolog, arxeolog va tarixchi olimlarining fikricha, odamzot oddiy mavjudoddan inson darajasiga yetib kelgunigacha katta tarixiy davrni bosib o'tib kamol topadi.

Odamzotning dastlabki ajdodlari avstrolopitek (maymun odam) va zinjantroplar bo'lib, ular hali odamdan ko'ra ko'proq boshqa jonzotlarga o'xshab ketgan. Qaddini tik tutib yurolmagan, ongi shakllanib ulgurmagan. Shunday bo'lsa-da, bu odam ajdodlari toshni yerdan terib olib, bir-biriga urib

mehnat quroli yasay olgani uchun unga “homo habilis” (“ishbilarmon odam”) deb nom berilgan.

Odamzotning keyingi rivojlanish bosqichlari pitekanthrop (“janub odami” degan ma’noni anglatib, Indoneziyaning Yava orolidan topilgan) hamda sinantrop (“xitoy odami”) bo’lib, ular asta-sekinlik bilan tabiatni o’rgana boshlaganlar. Bu esa ularning o’zlarida ham tashqi ko’rinishlarida, ham aqliy imkoniyatlarini tobora o’zgarishiga olib kelgan. Sinantropalar tabiiy olovdan foydalana bilishgan.

Neandertallar (Germaniyaning Neandertal vodiysidan topilganligi uchun shunday nom bilan atalgan) esa hozirgi zamon odam bosqichiga o’tish davri bo’lib, ular sun’iy olovni kashf etishgan. Ular go’shtni olovda pishirib kabob yeganlar. Qadimgi odamlar pishirib iste’mol qilgan dastlabki taom bu olovda pishgan go’sht bo’lgan. Neandertallar nafaqat moddiy madaniyatni, balki sodda ko’rinishga ega bo’lgan ma’naviy madaniyatni ham yuzaga keltirishgan. Ular ov, termachilik va turli hodisalar jarayonida bir-birlariga nimanidir aytishlari zaruriyatidan kelib chiqqan. Bu zaruriyat odamlar orasida so’zlashuvning paydo bo’lishiga olib kelgan. Olimlarning fikrlariga ko’ra o’liklarni ko’mish odati va dastlabki diniy e’tiqodning kurtaklari neandertallar – qadimgi odamlar yashagan davrda paydo bo’lgan.

Bundan 40-35 ming yil ilgari neandertallardan – qadimgi odamlarning rivojlanishi natijasida kromanonlar shakllangan. Ular tashqi qiyofalari, jismoniy tuzilishi, bosh miyasining rivojlanganligi bilan hozirgi odamlarga aynan o’xshash bo’lgan. Ularning ongi, tili rivojlangan bo’lib, bir-birlari bilan burro-burro so’zlashganlar. Ular “aql-idrokli kishilar” deb atalganlar.

Bu odamlarning shakllanishi bilan antropogenez (odam rivojlanishi) jarayoni o’z nihoyasiga yetgan.

Chetlab o’tish stimuli darslarda namoyon bo’lishi darajasiga ko’ra yuqori sinflarda ortib boradi (V sinf – 25%, VI – 25%, VII – 40%, VIII –

48%, IX – 78%). Bu tushunlari hol: o'quvchilarning bilim va tajribasi yildan yilga boyib boradi, aqliy yetukligi endi shunchaki yangini topish bilan qoniqmaydi. Eski narsada yangini ko'rish, kundalik odatiy narsaga oid bilimlarni chuqurlashtira olish qobiliyati o'z-o'zicha aqliy rivojlanish ko'rsatkichidir. Bilishga qiziqish uchun bu qobiliyat ancha ahamiyatli bo'lib, kuzatish, fikrlash jarayonlari faolligidan dalolat beradi.

Masalan, VIII sinfda o'qituvchi O'zbekiston tarixi darsida "Xiva xonligining tashkil topishi" mavzusini o'rgatar ekan, o'qituvchi o'quvchilardan Xorazm tarixiga oid nimalarni bilishini so'raydi. Agar o'quvchilar oldingi yillarda bu mavzuni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishsa, albatta Xorazm tarixiga oid muhim voqyealarni izchil bayon etib bera oladi. Shu bilan birga, o'qituvchi ulardan bu davlat tarixiga oid yana nimalarni bilishni xohlashlarini so'rashi mumkin. Ana shu jarayonda o'quvchilar avvalgi bilimlariga tayanib, yangi narsalarni, voqyealarni bilishni istaydi hamda tobora ko'proq bilishga qiziqish uyg'onadi.

Zamonaviy fan yutuqlarini ko'rsatish ham bilishga qiziqishni quvvatlaydi va mustahkamlaydi, u ham ajablanish, ham hurmat, ham inson aqlidan hayratlanish hissini keltirib chiqaradi. Afsus – hamma vaqt ham o'quvchilarning bilishga qiziqishini mustahkamlash yetarlicha qo'llanilmayapti. Lekin barcha fanlardagi mavzularni zamonaviy fan yutuqlari bilan bog'lash imkoniyati mavjud. Ayniqsa, tarix darslarida zamonaviy fan yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlari katta. Masalan, 9-sinf O'zbekiston tarixi darsida "1898 yilgi Andijon qo'zg'oloni" mavzusini o'rganilar ekan, albatta qo'zg'olon ishtirokchilarning jangovor qurollari haqida to'xtalib o'tish lozim bo'ladi. Jumladan, o'qituvchi o'quvchilar hukmiga shunday ma'lumotlarni havola etadi: "1898 yil 17 mayda Muxammadali eshon qilichlar, xanjarlar, pichoqlar va nayzalar bilan qurollangan 500 kishi bilan birga Mingtepa qishlog'idan chiqib Andijon

shahriga qarab yura boshladi. Qo'zg'olonchilar oddiy tayoqlar eshon duosi bilan o't ochar miltiqqa, belbog' esa tig' o'tmas qalqonga aylanishiga ishonishgan". O'qituvchining ma'lumoti butun o'quvchilarning ko'z o'ngida o'sha davr bilan bir paytda bugungi kun harbiy texnikasi, qurol-yaroqlarini yaqqol gavdalantiradi. O'qituvchi esa ana shu jihatni hisobga olib, ularda zamonaviy jangovor qurollar haqida tasavvur hosil qilishi lozim.

Bilimlarning **amaliy** roli tahlili, tadqiqotchilar ma'lumotlariga ko'ra, bilishga qiziqishning, ayniqsa, kichik o'spirinlarda rivojlanishi uchun ancha dolzarb sanaladi, zero bilish va tajriba yetishmasligi bois kichik o'spirinlar o'quv materialining nazariy ahamiyatining to'laqonli baholay olmaydi. Olingan bilimlarni amalda qo'llash imkoniyati ular uchun juda katta rag'batlantiruvchi ahamiyatga ega. Ta'limning turli yillari va bosqichlarida stimuly turlicha namoyon bo'ladi va uning o'quvchilarning individual qiziqishlariga ta'siri ham turlicha. Bilimlarning nazariy emas, balki amaliy xarakteriga moyil ayrim o'quvchilar ta'lim mazmunini ayni shunda ko'radilar: "Men fizikani yoqtirmayman, unda radiopriyomnikni tayyorlash haqida maslahatlar yo'q. Lekin menda texnikaga oid kitoblar ko'p..." – kichik o'spiranlarning ayrim fikrlari shu kabidir.

Shuning uchun biz tarix darslarida bilimlarni amaliyotga tadbiiq etib borishga harakat qilamiz. 6 – sinfda "O'rta Osiyo xalqlarining ahamoniylar bosqiniga qarshi kurashlari" tarixi o'rganilayotganda, rolli o'yinlarning tashkil etilishi o'quvchilarning bilishga qiziqishini oshiradi. Masalan, o'quvchilar ishtirokida To'maris, Shiroq, Spitamen qahramonliklari va jasoratini ifoda etuvchi kichik sahna ko'rinishlarini namoyish etish maqsadga muvofiqdir. Yoki bo'lmasa, qo'zg'olonlar va urushni kelib chiqish sabablarini o'rganar ekanmiz, odatda ularning kelib chiqmasligi uchun qanday sabablar lozimligini topishga ham o'rgatish lozim. Buni ijobiiy tomoni

shundaki, o'quvchilar o'zlari uchun foydali malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq rag'batlantirish. Odatda, ta'lim jarayonida o'qishga qiziqishga katta ahamiyat beriladi. O'quv materialini mazmunining obyektiv imkoniyatlari roli qanchalik katta bo'lmasin, baribir o'quvchining bevosita faolligi uning bilishga qiziqishini kuchliroq rag'batlaydi.

Biz ham boshqa ko'pchilik olimlar, o'qituvchilar singari an'anaviy o'qitishning rolini kamsitish fikridan yiroqmiz. Biroq bir tomondan, fan, texnika, madaniyatning tezkor taraqqiyoti, ikkinchi tomondan, axborotlarning taboro globallashib borishi, boshqa tomondan, bugungi o'sib kelayotgan avlodning har jihatdan erta rivojlanishi – akselerasiya o'quv jarayoniga shunday yondashishni talab etmoqdaki, bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning yangi materialni mustaqil o'zlashtirish istagi kabi imkoniyatlarni rivojlantirishga qaratiladi.

Rag'batlashning bu turiga o'quvchilar mustaqil ishlarining xilma-xil shaklini, ularning bilish faoliyatining yangi usullarini egallash, ta'limda muammolilik, fan metodlariga jalb etishni o'z ichiga tadqiqotchilik elementlari, turli ijodiy va amaliy ishlarni kiritamiz. Mustaqil ishlarining xilma-xilligi va shakllari almashib turishi o'quvchilar faolligini rag'batlashi isbotlab berilgan. Biroq o'quv materialini mazmuni malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida mustaqil ishning qandaydir bitta shakli uzoq muddat qo'llanishini talab qilgani bois bu stimuldanda hamma vaqt ham foydalanib bo'lmaydi. Ko'pincha, masala yechish (fizika, kimyo, mehnat) jarayonida o'quvchilar yechish algoritmini o'zlashtiradilar. Yechish usullarini o'rganish, shubhasiz, zarur. Biroq bu holda harakatlar takrorlanuvchanligi bilishga qiziqishni mustahkamlash yo'lida g'ov bo'lishi mumkin. Bunday bo'lmasligi uchun esa harakat vaziyati, o'qituvchi bilish

vazifasi va uni hal etish jarayoniga munosabati bilan yaratgan holat bilan bog'liq stimullar muhim.

O'quvchilarning bilish faolligini oshirishda darsda **o'quvchilar va o'qituvchilar munosabatlaridan** kelib chiqadigan rag'batlash ham alohida ahamiyatga ega. Gnoseologik va ijtimoiy nuqtai nazardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, ta'lim o'quvchilarning bilishga qiziqishiga bevosita ta'sir etadigan munosabatlar bilan bog'liq.

Mazkur masala yuzasidan tadqiqotlar olib borgan olimlar o'quvchilarning bilish faoliyati xissiy ko'rinishi uchun xos bo'lgan rag'batlar o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar hamda o'quvchilar jamoasidagi xususiyatlar bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. O'quvchilar faoliyatini o'qituvchi tomonidan intellektual tartibga solinishi bilishdan quvonish, muvaffaqiyatdan qoniqish uyg'otadi. O'qituvchi guyo o'quvchilar bilan teng asosda izlanish ishlarini olib boradi: ular bilan birga reja tuzadi, bilish vazifalarini hal etishning turli yo'llarini izlashga majbur etadi.

O'qituvchining pedagogik ishontira bilish qobiliyati bilishga qiziqish rivojiga kuchli turtki beradi. O'quvchiga, uning bilish imkoniyatlariga ishonish psixologiyada ham, maktab amaliyotida ham isbotlanganiday, nafaqat o'quvchining bilishga qiziqishi, balki uning ma'naviy rivojlanishi uchun ham rag'batdir.

O'qituvchi ishlarining o'quvchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, ularning o'qituvchi tomon harakati ham bilishga qiziqishga ta'sirini o'tkazadi, ta'lim va o'qish samaradorligiga ko'maklashadi. O'qituvchi ishonchi doimo o'quvchilarning o'sha tomon intilishini keltirib chiqaradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkin:

1. O'quv jarayoni yaxlit va hatto har bir dars o'quvchilarning bilishga, turli sinf va fanlarda namoyon bo'lish xarakteriga ko'ra rag'batlar turli xil bo'ladi.

2. Rag'batlarning bir xil tuzilishga egaligi, o'zaro bog'liqligi bilishga qiziqishni mustahkamlash va rivojlantirishga xizmat etadi, shaxsning bilish kuchlari, uning fikrlash, irodaviy, hissiy-bilish jarayonlari faollashini ta'minlaydi.

3. Har bir darsda bilishga qiziqish o'zining avj nuqtasi, o'zining ko'rsatkichiga ega, o'qituvchi buni ko'rishi, diqqat bilan tahlil qilishi muhim, zero bu umumiy ma'noda darsning samaradorligi ko'rsatkichidir.

4. O'quvchilarning bilishga qiziqishlarini tobora istiqbolli yo'nalishi qiziqishning dars boshidan to oxirigacha izchil o'sib borishidir, bunda o'quvchilar ishga berilib qo'ng'iroqni eshitmaydi va darsdan o'quv jarayonida qilib ulgurmaganini davom ettirish istagi bilan ketadilar.

5. Darsda bilishga qiziqishning asta-sekin so'nib borishi uni rag'batlamaydi, balki o'chiradi va har safar qiziqtirishni boshidan boshlash lozim bo'ladi.

1.2. Mehnat darslarida o'yinchoqlar yasashning asosiy xususiyatlari

O'yinchoqlar – bolalar o'yinlari uchun yaratilgan maxsus predmetdir. Biroq bu anik predmetning kichiraytirilgan nusxasi emas, balki uning shartli tasviri, o'ta umumlashtirilgan badiiy obrazdir. Ifodali shakl va harakatlilik, ravshanlik va rangning shartliligi bularning barchasi bolaning o'yinchoqqa jalb qiladi. U bilan o'ynash ishtiyoqini tug'diradi. O'yinchoq bola quvonchining manbaidir.

Yumshoq o'yinchoqlar bilan turli yoshdagi bolalar shug'ullanishlari mumkin. Aytishlaricha, yumshoq o'yinchoq yasab o'ynash faqatgina kichik

bolalarga xos deb, lekin tajribalar shuni ko'rsatadiki yumshoq o'yinchoqlar bilan faqat bolar emas, balki katta yoshdagi bolalar ham qiziqadilar.

Kichik o'quvchilar o'yinchoqlarning eng oddiy turlari, kattaroqlari esa qo'g'irchoq teatri qo'g'irchoqlarini turli holatdagi o'qinchoqlarni tayyorlaydilar. O'quvchilarga o'yinchoqlar yasashni o'rgatish uchun avvalo o'qituvchi o'zi bu sa'natni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak. O'zi tayyorlagan chiroyli o'yinchoqlarni o'quvchilarga ko'rsatar ekan, ularda ham o'yinchoqlar yasash qiziqishi paydo bo'ladi.

Yumshoq o'yinchoqni yasashni, uning yasash texnologiyasi uslubi, tayyor shablon asosida boshlash mumkin. O'yinchoq andoza asosida tayyorlanishiga qarab, bolalarni intilishlariga, o'zlari o'ylab qo'shgan g'oyalari uchun rag'barlantirishlari kerak.

Ishni tashkil qilishdan oldin qo'yidagi ashyolar va asboblarni tayyorlash kerak:

Asboblari:

1. Ignalarning turli katta-kichiklari.
2. G'altakli turli rangdagi iplar.
3. Rangli mo'lina iplar.
4. Turli rangdagi ipakli iplar.
5. Qaychi.
6. Bigiz.
7. Ombir.
8. Dazmol.
9. Angishvona.
10. Qalam.

Ashyolar:

Yumshoq o'yinchoq uchun iloji boricha yangi mato yoki avvaldan yuvib, dazmollangan satin, barxat, shtapil, paxmoq, chit, junli matolar zarur.

Hayvonlarni tayyorlash uchun tukli bumaziy, su'niy va tabiiy jun matolaridan foydalaniladi.

Tana yuz ko'rinishini tasvirlovchi o'yinchoqlar uchun shifon, su'niy tolali shoyi matolar, yuz uchun och pushti, och jigarrang matolar olinadi, kiyimlari uchun rangli matolar, soch uchun su'niy iplar, viskoza, qismlarni birlashtirishda 1-2 mm yumshoq simlar, o'yinchoqlarni jihozlashda har-xil tugmalar, biser, tisma, lentalar, shnurlar hamda eskiz tayyorlash uchun plastilin zarur. O'yinchoq ichi paxta bilan, tirikotaj chiqindilari, averla qilishda yog'ochdan chiqqan qirindilar bilan to'ldirish mumkin.

Yumshoq o'yinchoq tayyorlashda ishni nimadan boshlash kerak. Dastlab bolalarni ignani ushlabdan, igna to'g'nog'ichdan o'rinli foydalanishdan, so'ng eng oddiy chok turlarini tikishdan boshlash zarur. Chok turlarini o'rgatish uchun amaliy bir nechta ish tavsiya etiladi. (Ro'molcha tikish, xaltacha tikish va boshqalar). Bu esa bolalarni chok turlarini tikish malakasini egallashga shiroit yaratadi. Bolalarda igna bilan ishlash malakasi hosil bo'lgandan keyin oddiy model tayyorlashga o'tiladi. Bolalar qo'lda tikadilar, kattaroq bolalar tikuv mashinasidan foydalanish mumkin.

Yumshoq o'yinchoq tikish izchilligi qo'ydagicha bosqichlardan iborat: Mato tanlash, g'ijim matoni dazmollash, matoga andoza chizish, qismlarni bichish, tikish, ichini to'ldirish, ustini jihozlash.

Andoza kartondan tayyorlanadi, bichishga mato ikkiga buklanadi, uning chap tomoniga andoza qo'yib bichiladi, yaxshi ichi ochiladi, qalam bilan tayyorlanayotgan bo'lsa, andoza har bir bo'lak mato ustiga ipini qiyalab yo'nalgan tomoniga qo'yiladi. Toq mato bo'lsa andoza oq yoki sariq rangi qalam bilan och rangi mato bo'lsa qaro rangli qalamdan tayyorlanadi.

Chizib olingan mato har tomondan 0,5 sm chok uchun qoldirilib, qirqiladi, so'ng qo'lda yoki mashinada tikiladi. Burchaklar o'ng tomonga

chiqariladi. Tayyor tikilgan forma metal tayyoqcha yordamida o'tmas tomoni bilan o'ngiga ag'dariladi.

Agar o'yinchoq tabiiy jundan tayyorlanayotgan bo'lsa chok haqqi qoldiriladi, chetlari qalin ipda tikiladi.

Hayvon va qushlarni tikish qo'ydagi qoida bo'yicha: avval tana va qorin qismlari bir-biriga tikiladi. Formani ikki yarmi tayyor bo'lgandan so'ng ularni birga tikiladi. Forma o'ngiga ag'darilib qoldirilgan joydan ichi to'ldiriladi, qismlari bir-biriga ko'rinmas chok bilan birlashtirib tikiladi. O'yinchoq ichi paxta yoki mayda mato qiyqimlari bilan to'ldiriladi.

O'yinchoq tayyorlashni qiyinlik bosqichiga qarab ikki guruhga ajratiladi.

- 1- guruh: Yengil to'ldiriladigan o'yinchoq (tovuq, marteshka qo'g'irchoq, pigvin, o'rdakcha, kuchukcha, filcha, quyoncha, ayiqcha, xo'tikcha, jirafa).
- 2- guruh: Qo'g'irchoq teatri uchun qo'g'irchoq (Cho'chqa, kuchukcha, ayiqcha, maymuncha, qo'g'irchoq, mushuk sim sixga o'rnatilgan o'yinchoq, buratino, tulki va boshqalar).

O'yinchoqlarni yasash bolalarni fikrlash qobiliyatini riojlantiradi, saviyasini kengaytiradi, ijodiyotga qiziqishini tarbiyalaydi. Ular o'zlari yasagan o'yinchoqlarga o'zlarini ajoyib-g'aroyib istaklarini, muhabbatlarini, mehnatlarini sarflaydilar. Shuning uchun ularning mehnatlarini qadrlab va mehnat qilishga qiziqtirish lozim. Bu esa ularda maqsadga intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tirishqoqlik, o'zaro yordam berish, mehnatsevarlik, e'tiborlilik, batartiblikni tarbiyalaydi.

II. bob. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida o'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirish usullari

1. §. I – IV sinf o'quvchilarining bilish faoliyatlarini rivojlantirish usullari.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining barcha o'quv faoliyatlari qat'iy maqsadga yo'naltirilgan.

Birinchidan, o'quvchilar yozish, o'qish va sanash malakalariga yega bo'lishi mehnat, ona – tili, tabiatshunoslik bo'yicha ancha katta bilimlarni yegallagan bo'lishlari kerak.

Ikkinchidan, ong bilim darajasi kengayib boradi. Bolaning bilishga qiziqishlari kengayadi va rivojlanadi.

Uchinchidan, bilish jarayoni va aqliy jarayoni ro'y beradi, faol mustaqil va ijodiy faoliyatiga bo'lga qobiliyat shakllanadi. Nihoyat oxirida o'quv yo'naluvchanligi o'qish va ma'suliyat yuqori darajada ijtimoiy munosabatda bo'lishi lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish jarayoni uning o'quv faoliyati davrida rivojlanishini tavsiflab berishga harakat qilib ko'raylik. Tevarak atrofimizdagi olamni bilishdagi psixik jarayon sezgi va idrokning rivojlanishi bilan ifodalanadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning idrok yetishining o'tkirligi va sofliigi bilan farq qiladi. Ya'ni mushohadaga qiziquvchanligi birinchi signallarni qabul qilishga nisbatan yuqori asab faoliyatining yosh hususiyatlari bilan tushuntiriladi. Kichik yoshdagi o'quvchi atrofimizdagi hayotni zo'r qiziqish bilan kuzatadi. Idrok qiladi. Ammo o'qish boshlanishidagi bunday idrok yetish ularning yoshlik hususiyatlariga kamchiliklariga qaratilishiga o'ziga xos faoliyati bilan farq qiladi.

1. Idrok yetishning juda tavsifli belgisi – uning kichik tabaqalarga ajratilishidir. Kichik yoshda bolalar o'xshash buyumlarni ajratishda

aniqsizlikka va xatolikka yo'l qo'yadilar. Masalan: harflarni xato aytadi. Chizmalardagi o'xshashlikni aralashtirib yuboradi. Bu narsa idrok yetishdagi analitik funksiyaning yoshlik, sustkashligi bilan bog'langandir. Ammo, – II sinf o'quvchilari tavsilotlarini tahlil qilishga va sanashga qobiliyasiz deb o'ylamaslik kerak. Ba'zan kichik yoshdagi bolalar kattalar e'tiboridan chetda qolgan tavsilotlarni payqab qoladi.

Gap boshqa tomonda: idrok yetishda chuqur, uyushgan va maqsadga muvofiq yo'naltirilgan tahlil qilishdagi sustkashlikka bolaning odatlanib qolishidir. Shuning bilan birgalikda uning muhim va ahamiyatli tomonga e'tabor qilmaydi.

Shunday qilib fanni o'rganish bilan bog'liq yeng umumiy yalpi yegallash va ko'rinishda ayrim va ko'pincha ahamiyatsiz tafsilotlar va muhim bo'lmagan narsalarni tasodifan idrok yetish hollari ham uchraydi.

Masalan: bolalarga bir oylik chamasida rang tasvirini ko'rsatib yana olib qo'yiladi. Tasvirni juda qiziqib kuzatganda birinchi sinf o'quvchilari mushukning kiprigi va mo'ylovi bor edimi? Ko'zi qanday rangda edi? kabilarni anglamaganliklari seziladi. Ular keyinchalik mushukning juni qanday rangda, qoshi bormidi? Quloqlari qanday deb so'roq qiladilar.

Kichik maktab yoshining boshlanishida o'quvchilarning idroki harakat bilan bolaning amaliy faoliyati bilan uzviy bog'langandir.

2. I – IV sinf o'quvchilarining idroki ochiq ifodalangan jo'shqinlik katta ahamiyatga yegadir. Birinchi navbatda bolada bevosita jo'shqinlik uyg'otadigan narsalar, ularning xoslari, belgilari, mohiyati idrok etiladi. Bu yoshdagi bolalarda “xolisona jo'shqinlik” bilan idrok yetish unchalik qulay emas. Idrok yetishda ko'rsatmali aniq jonli o'zlashtirish, ravon jo'shqinlik kabi tomonlarga e'tibor berish kerak.

O'qish jarayonida idrok qayta ko'rilib rivojlanishning ancha yuqori bosqichiga ko'tariladi. Dastavval, to'g'ri tashkil yetilgan o'qitish

jarayonidagi kichik yoshdagi o'quvchilarning idrok yetishining maqsadga muvofiq yo'naltirilgan va o'ziga xos faoliyati bilan boshqariladigan tavsifga yega bo'ladi. O'qituvchi kichik yoshdagi o'quvchilarning idrok yetishini maxsus tashkil yetib, bundaylar oldiga tegishli topshiriqlar qo'yadi, ularni idrok yetish jarayonini boshqarishga va uning natijalarini nazorat qilishga o'rgatadi.

Dastlab bola predmetlar bilan harakat qilishni o'rgangan bo'lsa, yendilikda predmet va narsalarni to'g'ri idrok yetish uchun uning bilan harakat qiladi. O'qitish jarayonida idrok yetish alohida maqsadga yo'naltirilgan maqsadga, faoliyatga aylanadi. Murakkablashadi va chuqurlashadi. Tahlil qilinadigan bo'laklarga ajratadigan bo'lib qoladi. Tashkiliy kuzatish tavsifiga yega bo'ladi.

Idrok yetish o'z – o'zidan rivojlanmaydi. Bu o'rinda o'qituvchining roli juda katta bo'lib, qaysikim, faqat qarash emas, muhokama qilish, faqat yeshitish emas, balki diqqat bilan tinglash malakalarini tarbiyalaydi, u yoki bi manbaalarni idrok yetish uchun o'quvchi faoliyatlarini tashkil yetadi, narsalar va hodisalarning muhim belgilari va xossalarini aniqlashga va nimaga ko'proq e'tabor berishni ko'rsatadi, bolalarni idrok etiladigan narsalarni rejali va sistemali tahlil qilishga o'rgatadi. Bularni yekskursiya paytida maktabda turli ko'rsatmaliliklarni namoyish qilishda rasm darslarida qilinadigan amaliy ishlar paytida va maktab o'quvchilarini mehnat faoliyatida amalga oshirish kerak.

Psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha idrok yetishni tashkil yetish va kuzatuvchanlikka tarbiyalashni yeng yaxshi usullaridan biri taqqoslashdir. Buning bilan idrok yetish ancha chuqurlashadi, xatolar soni kamayadi.

Masalan; uchburchak va to'rtburchaklarining modellarini namoyish qilib ko'rsatganda o'quvchilar ularni muhim belgilarini kamroq payqadilar.

Muhim belgilari bilan tasodif belgilarini aralashtirib yuboradilar, tomonlari, uchlarini taqqoslashda ba'zan xatoga yo'l qo'yadilar.

O'quvchilar tomonidan vaqt va fazoni idrok yetish va baholash masalasi alohida ahamiyatga yegadir. Bu o'rinda o'quvchilarning tabiashunoslik, tarix va geografiyaga oid bilimlaridan habardor bo'lishi juda foydalidir.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning vaqt va fazoni idrok yetishi ulkarning kundalik hayotiy tajribalari bilan uzviy bog'langan. Ammo boladagi tajriba unchalik boy emas. Masalan, bola bobosidan mamontni ko'rganmisiz deb so'raganda bobosining yoshi bilan mamont uning minglab yil oldin yashab o'tganligini tasavvur qila olmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ancha oldin, juda uzoq kabi tushunchalarning ma'nosini tushunib yetmasligi tufayli yuqorida aytilgan xatolarga yo'l qo'yadilar. Shuning uchun ham ta'limning dastlabki davrlaridan boshlab o'quvchilarga vaqt va fazoviy munosabatlarni izchillik bilan o'rgatib, ularni idrok etishni takomillashtirish va shu asosida va fazo tushunchalaridan ongli imkoniyati yaratiladi. Bunday ta'limiy masalani hal etishda o'quvchilardan mas'uliyat bilan ishlashni talab qiladi.

O'quvchilarni bilish faoliyatlarini rivojlantirishda diqqat, xotira, tasavvur, fikrlash, analitik-sintetik faoliyatni to'g'ri tashkillashtirishning ahamiyati kattadir.

1.Diqqat. Bunda diqqatning asosiy mohiyati ixtiyoriy (erkin) diqqatning sustligidir. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida diqqatni erkin tarbiyalash va boshqarish imkoniyatlari cheklangan.

Shu sababli kichik yoshdagi o'quvchilarning erkin diqqati ta'lim mazmunining qisqa, ya'ni diqqat o'rganilayotgan material (manba)ga yaqinlashishni talab qiladi. Masalan, 3-4 sinf o'quvchilari qaratilayotgan topshiriqning mazmuni qiziqarli bo'lmaydi va qiyin bo'lishiga qaramasdan,

natijaga erishmoq uchun astoyidil harakat qiladi va bu harakat uzoq davom etishi mumkin. 1-2 sinf o'quvchilari o'zlariga qo'yilgan topshiriqni tez bajarishga "5" baho olish o'quvchilarning maqtoviga sazovor bo'lish uchun ishlashga boshqaradi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarda ixtiyoriy diqqatni uzoqdan mavzulashtirishni tarbiyalash bolarning yosh xususiyatlariga, bir-biriga yaqin va bir-biridan ancha uzoqlashgan maqsadlarni asta sekin bilan bog'lash asosida amalga oshiriladi.

Masala, ancha uzoqlashgan mavzu (jamiyat uchun foydali kishi bo'lish) ancha qiyin bo'lgan mavzu (sinf dan sinfga muvaffaqiyatli ko'chish) bilan ancha yaqindan bog'langan bo'lishi kerak. Bu esa o'z navbatida yaqin mavzu bilan bog'lash asosida amalga oshiriladi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida ixtiyoriy bo'lmagan diqqat ancha yaxshi rivojlangan bo'ladi. O'qish boshida bu diqqatning rivojlanishi ancha rag'batlantirilgan bo'ladi. Barcha yangiliklar, kutilmagan narsalar, ravshanlik, qiziqarlilik, bolalarning diqqatini o'z-o'zidan va hech qanday mashaqqatsiz ularning diqqatini jalb qiladi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha 1-2 sinf o'quvchilari 20-30 minut va undan ko'proq vaqt ichida uzluksiz qunt va diqqat bilan tinglashni saqlashi mumkin. shuning uchun ham darsni tashkil etishda vaqti-vaqti bilan qisqa muddatli tanaffus qilib turish foydalidir. 3-4 sinflarda esa tanaffusni matematik o'yinlar, qiziqarli daqiqalar bilan almashtirish mumkin.

O'quvchilarning diqqati o'quv ishlarining maqsadga muvofiq tashkil etilishiga, uning borish sur'atiga, o'quvchilarning mahoratiga metod tanlashi, qiziqarli materiallardan foydalana bilishiga bog'liqdir.

O'quvchilarning ixtiyoriy diqqati o'qishning yuqori ijtimoiy yo'nalishining rivojlanishi bilan birgalikda rivojlanib boradi. Shu asosida

kichik yoshdagi o'quvchilarni o'z diqqatini tashkil etish, tartibga solish uni ongli boshqarish ko'nikmalarini shakllantiradi.

2.Xotira. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda xotira o'qitish ta'sirida ikki yo'nalishda – barcha so'zli-mantiqiy ma'nosini tushunish (ko'rsatmali tasvirga nisbatan)ning mohiyati va nisbatan kuchayishi bilan va bolaning o'z xotirasini boshqarish va uning hosil bo'lishini tartibga solish bilan rivojlanadi.

Bolaning o'qish faoliyatida so'zli mantiqiy narsalarga nisbatan ko'rsatmali tasvirli narsalarni xotirada yaxshi saqlanadi. Ular aniq malumotlarni , voqealarni , yuz narsalar va axborotlarni (ta'riflash va tushuntirishga nisbatan) esda yaxshi saqlab qoladi. I - II sinf o'quvchilari esda saqlash lozim bo'lgan materiallarning ichki manaviy bog'lanishlarini tushunmasdan, ularni oddiy takrorlash yo'li bilan mexanik usulda yodlab olishga moyildir. O'quvchilar kuzatayotgan, ko'rib turgan narsa , voqeya va xodisalarni xotirada juda qulay , tez va mustaxkam eslab qoladi.

Bunday bola xotirasini rivojlantirish va bilimlarni yaxshi eslab qolish uchun ko'rsatmalilikdan (I- Iisinfalarda) foydalanish naqadar ahamiyatli ekanligi ko'rinib turibdi . Ixtiyoriy esda saqlashning ta'sirchanligi kichik yoshdagi o'quvchilarning aqliy faolligiga bog'liq ekanligini unutmaslik kerak.

O'zlashtirmovchi o'quvchilar o'zlashtiruvchi o'quvchilarga nisbatan tafakkur operatsiyalarining shakllanmaganligida va o'tilgan materiallarni xotirasida saqlab qola olmaganligida yani o'quvchining ixtiyoriy diqqati xotirasi shakllanmaganligi bilan farqlanadi.

Psixolog L. S . Slavina o'zlashtirmovchi o'quvchilarning ana shunday guruhlariga bo'linishini yoqlagan xolda psixalogik qarashlarini ko'rsatib o'tadi:

a) topshiriqni diqqatsizlik bilan qabul qiladigan , uni tushunmay qoladigan, lekin o'qituvchiga so'roqlar beradigan va uni tushuntirib berishi bilan qisman tushunadigan o'quvchilar;

Bu tipga kiruvchi o'quvchilarni boshlang'ich sinfdan uchratish mumkin, ular o'qishni xohlamaydi, bunga sabab ularda o'qishga shaxsiy va ijtimoiy motivlarni yo'qligidir.

b) hamma vaqt o'tilayotgan matnни tushunmasdan keyingisiga o'tishni xohlaydigan, sust ishlaydigan o'qishni qiyinchilik bilan o'zlashtiradigan o'quvchilar .

Bu toifaga kiruvchi o'quvchilar o'qituvchilarga yaxshi malum deyarli barcha boshlang'ich sinflarda uchraydi . O'qituvchilar va ota onalar bu kabi o'quvchilarni uquvsiz bazida ularni aqliy qobiliyatsiz deb ham bilishadi. Ular berilgan materialni ayrim vaqtlarda so'zma so'z aytib beradi. Lekin so'zlab berilgan material bo'yicha savol so'rasangiz birortasiga ham javob bera olmaydilar. Chunki o'qigan narsasining mazmuniga tushunib yetmaydilar. Bunday o'quvchilar o'rtoqlari daftaridan asta sekin ko'chirishga o'rganib boradilar .

v) o'zidagi o'zlashtirmovchilikni omadsizliklarni , qiyinchiliklarni sezmaydigan o'quvchilar;

Bu guruxga kiruvchi o'quvchilarni o'rganishda yana shu narsa malum bo'ladiki bu guruxga mansublar o'qishga umuman qiziqmaydilar, hattoki, ular o'qishni ham bilmaydilar. Bunday o'quvchilar afsuski bor.

Ular ko'proq boshlang'ich sinflarda uchraydilar. Bu o'quvchilar mehnat qilishga o'z layoqatsizliklarini yo'qotishni ham xohlamaydi . va shu bilan birga o'z ishini qanday qilib rejalashtirish kerak ekanligini tushuntirib berishlarini ham xush ko'rmaydi.

Yuqorida keltirib o'tilgan o'zlashtirmovchi o'quvchilar uchun birinchi o'rinda o'zini o'zi tashkil qilish harakterlidir. Chunki ularga psixolog

jarayonlarni boshqarishda uquvsizlik (diqqat, xotira) masalalarni yechishda o'ylashni ham xohlamaslik, bilimlarni o'zlashtirishga qiziqmaslik xosdir.

Bu o'quvchilar aql va ziyraklikni talab qiladigan ishlarga intilmaydigan va ulardan aylanib o'tadigan yo'llarni fikrlashdan qutqaradigan yo'llarni izlashga harakat qiladilar.

O'zlashtirmovchi o'quvchilarning darslarni o'zlashtira olmasliklariga olib keladigan psixalogik sabablar nimalardan iborat?

O'zlashtirmaslikning yana bir nechta psixalogik sabablar borki, ular quyidagilardir;

a) didaktik va tarbiyaviy ta'sirlarning yo'qligi, o'quvchining psixalogik va pedagogik jixatlari hisobga olinmay, sinfdan sinfga o'tkazilishi;

b) boshlang'ich sinflarda normal o'qish uchun noqulay sharoitlarning kishi istamagan holda vujudga kelishi (uzoq davom etgan kasallik, jismoniy nuqsonlik, holsizlik), turmush sharoitini noqulayligi, ota onalarning etiborsizligi, maktabning turar joyga bir muncha uzoqligi;

v) o'qish rejalarining dastur (programmalar) ning va qo'llanmalarning yetishmasligi, maktab talablariga bo'ysunmaslik, sodda masalalarni yechishda aqlni ishlatmaslik, dars vaqtida o'qishga halaqit beradigan o'yinlarni o'ynab o'tirish, uyga berilgan vazifalarga yomon tayyorgarlik ko'rish;

g) induvidial psixalogik xislatlar va xarakteridagi salbiy xususiyatlar;

Yuqoridagi gaplarni aytmqlikdan muddao: kelajagi buyuk davlat barpo etishni o'zining ulug'vor maqsadi deb bilgan davlatimizga har tomonlama rivojlangan ilmi, bilimli yetuk insonni tarbiyalashimiz lozim.

3. Tasavvur. Tasavvur ham bilishning asosiy omillaridan biri xisoblanadi. Tushunchalarning shakllanishi narsalar, voqyea va hodisalarni tasavvur qilishdan boshlanadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning tasavvur etishi uning ehtiyoji ta'siri ostidagi o'quv faoliyati jarayonida shakllanadi. Matematika o'qitishda tasavvur qilib fikr yuritishga o'rgatishning ahamiyati kattadir. I – II sinf o'quvchilari matematikadan darslabki darslardan oq narsalar, xilma xil o'yinchoqlar va tasvirlarni ko'rish bilan idrok qilib ularning katta kichikligi, ko'p yoki ozligi, uzun yoki qisqaligi, oldida yoki orqada va umuman ularning fazoviy holatlarini tasavvur qilib sanash, joylarini aniqlash va shu kabi boshqa tushunchalar shakllanadi.

4. Fikrlash.

O'qitish jarayonida kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining fikrlashi juda katta o'zgarishlarga bardosh beradi. Agar maktab ta'limigacha bolada idrok va xotira malum rivojlanish yo'lini o'tgan bo'lsa u xolda kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida aqliy faoliyatni jadal suratlar bilan rivojlanishi yuzaga keladi. 7- 8 yoshdagi bola odatda aniq darajada fikrlaydi va bunda aniq narsalar va xodisalarning ko'rsatmaliligiga va sifatiga tayanadi.

Shunday qilib, bola aniq fikrlash xususiyatiga ega bulgan xolda maktabdan zqishni boshlaydi. Fikr yuritmasdan bilimlarni o'zlashtirish mumkin emasligini etiborga olib, o'qituvchi bolaning fikrlashi uchun o'ulayliklarni yaratib berish zarur.

Biz bilish jarayonida rivojlanishning bzi psixologik yo'nalishlari haqida so'z yuritdik. Bulardan tashqari o'quvchilarning bilish faoliyatida o'rganilayotgan manbalarni analiz (qismlarga ajratish) va sintez (umumlashtirish yoki birlashtirish) qilishga o'rgatish ning ahamiyati kattadir. Ayniqsa masalalar yechish orqali bilim btrishda analitik-sintetik usullardan foydalanish o'quvchilarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini yaratib beradi.

Zamonaviy o'qitish metodlarini tanlash

1. Fikrlashning dastlabki mantiqiy yo'llari ustida ishlash usullari.

Dastlabki mantiqiy fikrlash usullari jumlasiga narsalarning xossalarini ajratish bu xossalardan muhimlarini ajratish taqqoslash kabi usullarning kirishini yuqorida aytib o'tgan edik.

O'qitish ishlariningboshida o'qituvchi turli yo'llar bilan tuzish mumkin bo'lgan mantiqiy usullarga birinchi marta murojaat qilishi mumkin.

Dars uchun o'qituvchi turli rangdagi va kattalikdagi har hil bo'lgan bir necha kubchalarni va bundan tashqari darsda foydalanish uchun paralon bo'lagi archa o'yinchoqlaridan yaltiroq sharcha, olma tasviri yoki o'zi og'irroq tarozi toshi, tiniq oyna tayyorlab qo'ygan. Bu materiallardan o'qituvchi predmetlarni bitta kubchani boshqa mavjud narsalar bilan taqqoslab, ularning xossalarini, usullarini shakillantirishda asta-sekin foydalaniladi.

O'qituvchi ishni shunday boshlaydi.

O'qituvchi: Mening qolimda nimani ko'rib turibsiz?

O'quvchilar: (hammasi birgalikda) bu kubcha.

O'qituvchi: Men hozir doskaga sizlar yesa daftaringizga "kubcha" degan so'zni yozib qo'yamiz. Bu ishni birgalikda bajariladi.

O'qituvchi: Sizlar bu kubcha haqida nimani ayta olasizlar? Bu qanday?

O'quvchilardan biri, bu kubcha ko'k rangda yekanligini aytdi.

O'qituvchi doskadagi "kubcha" so'zi tagiga "ko'k" deb yozib qo'yadi va bolalarga ham huddi shunday tartibda daftariga yozib qo'yishni buyuradi.

O'qituvchi: Bu kubchada yana nimalarni ko'rmoqdasiz?

O'quvchilardan biri : Biz bu kubchani kichik yekanini ko'rayapmiz.

O'qituvchi: to'g'ri yana bu tubcha haqida nimani ayta olasiz?

O'quvchi: Biz bu kubchani plastmassadan yasalganligini ayta olishimiz mumkin.

O'qituvchi: to'g'ri siz bu kubcha haqida aytganlaringiz bularning hammasi kubchanning xossalaridir. Yendi sizga kubning qanday xossalari ma'lum bo'ladi.

O'quvchi: ko'k, kichik, plastmassadan yasalgan.

O'qituvchi: Siz bu kubning yana qanday xossalarini aytib bera olasiz? Agar o'quvchilar kubning boshqa xossalarini ayta olmasa o'qituvchi stoldagi olmani olib bolalarga ko'rsatadi.

O'qituvchi: kim aytadi olma o'zining qanday xossalari bilan kubdan farq qiladi?

O'quvchi: olma dumaloq, kub yesa kvadratli (dumaloq emas)

O'qituvchi: yana nimasi bilan?

O'quvchi: olmani yeyish mumkin, kubni yesa yeb bo'laydi. Olma turli rangada kub yesa bir xil rangda.

Shundan keyin tiniq oynani ko'rsatadi. O'quvchilar bunda tiniqmas xossasini aniqlaydi. Kub bilan shishani taqqoslaganda o'quvchilar sinmaydigan sig'imli va hokazo kabi ba'zi xossalarni aytishlari mumkin.

Yana o'quvchilar paralon (yumoloq) sintetik material parchasi bilan kubni taqqoslab materiallar xossasini (yumshoq qattiq) anglyadilar. Kubni tarozi toshi bilan taqqoslab kubning massasi va yengil yekanligini ko'rsatadi.

Kubni archa o'yinchoq shari bilan solishtirib kubning yarqiramaydigan xira narsa yekanligini ishonch hosil qiladilar. Barcha aniqlangan xossalarni o'qituvchi tagma- tag doskaga va o'quvchilar yesa daftarga yozib qo'yadilar.

Suhbat oxirida o'qituvchi bolalardan “ bugun sizlar kubning nechta xossaini bilib oldingiz? ” deb so'raydi.

O'quvchilar aniqlangan xossalarini sanaydi va javo beradi.

O'qituvchi: Mana ko'rdingizmi, biz kubning 10 ga yaqin xossasini yozdik. Ammo bular kub xossalarining bir qismidir xolos. Agar kubni boshqa narsalar bilan taqqoslasak, uning boshqa xossalalarini aytib beramiz.

Ko'rib turibmizki bitta narsani boshqasi bilan taqqoslash oqibatida osonlik bilan ularning xossalarini ko'rsata olamiz. Faqat kubcha emas balki barcha narsalar ham o'ziga xos xossalariga yega. Ularni taqqoslash bilan xossalarini aniqlang. Bolalar xar nir predmetni tanlangan har xil predmetlar bilan taqqoslab ularni xossalarini aniqlab olamiz deb javob berishadi.

Ish oxirida o'qituvchi yana bir marta ta'kidlaydiki, narsalarni bir-biri bilan taqqoslash va undan predmatlarning xossalarini aniqlash uchun foydalanish kerak.

O'quvchilar bunday topshiriqlarni zo'r qiziqish bilan bajaradilar Faqat bitta narsa bilan emas, balki har xil va bir-biriga o'xshamaydigan bir nechta narsalar bilan ishlashga o'rganadilar.

Biz bitta darsdagi ko'rinishlarnigina bayon qildik xolos. Bundan tashqari boshqa geometrik shakllarni masalan, uchburchakning uning boshqa turlari yoki to'rt burchaklar bilan taqqoslab ularning umumiy va qator juz'iy xossalarini aniqlash mumkin.

Navbatdagi darslar turli kattalikdagi (o'lchovlari har-xil bo'lgan) turli rangdagi va turli materiallardan tayyorlangan kublardan foydalanib, ularni taqqoslash bilan yangi xossalarni keltirib chiqarish mumkin.

Bu o'rinda o'qituvchi og'zaki va amaliy, ko'rsatmali-namoyish qilish, analiz va sintez metodlaridan moxirlik bilan foydalanish zarur, bu siz qo'yilgan ta'limiy maqsadga yerishib bo'lmaydi.

2. Bilish faoliyatlarining maxsus ko'rinishlarini shakllantirish.

Ko'nikmalarning bu guruhlar alohida narsalar ustida ishlash jarayonida shakllanadi. Yuqorida aytilganidek, o'qituvchi xar bir narsani o'rganishda shakllantirish uchun zarur bo'lgan bilish harakatlarining to'liq dasturiga yega

bo'lishi kerak. Shuning bilan birgalikda predmetda aks yettirilgan o'zlashtirishning muvaffaqiyati ilmga kirishning chuqurligi bola tomonidan bu harakatlardan yeng muhimini qanday o'zlashtirib olinishi bilan aniqlanadi.

Mehnat o'qitish jarayonida bilish faoliyatlarining bazi ko'rinishlari qanday shakllanishi masalasiga to'xtab o'tmoqchimiz.

Boshlang'ich sinflarda mehnatni tez va chuqurroq o'rganish bolalarning yosh imkoniyatlari to'g'risidagi zamonaviy psixologik bilimlarga mos tuzulgan va shuningdek o'zlashtirish jarayoning qonunlarini hisobga olgan holda mumkin bo'ladi.

O'tkazilgan eksperiment ishlardan namuna keltiraylik.

O'lchash harakatlarini o'zlashtirib olgandan keyin o'quvchilar ikkita kattalikni taqqoslash harakatlarini o'zlashtiradilar. Bunda o'quvchilar 2 to'plam orasidagi o'zaro bir qiymatli moslikni o'rnatish harakatlarini o'rganadi. Miqdorlarni faqat bit xil o'lcham bilan o'lchash zarurligini ko'rsatib berish kerak. Masalan hajmi jihatdan qat'iy farq qiladigan ikkita kosani hajmlari bo'yicha taqqoslash talab qilinsin. Ulatni guruh bilan to'lg'zish kerak. Kichik kosani choy qoshig'i bilan va katta kosani katta osh qoshig'i bilan o'lchash bajarilgan bo'lsin. Bolalar ikki qator belgilarga yega bo'ladi va ular o'rtasida bir qiymatli moslik o'rnatib belgilar bo'yicha kichik kosaga kattasiga qaraganda ko'proq gurunch ketganini ko'radi.

3. O'quvchilarning o'quv ko'nikmalariga kiradigan harakatlarni shakllantirish usullari .

Fikrlashning mantiqiy usuli va bilish faoliyatini o'ziga xos maxsus ko'rinishlaridan tashqari maktab o'quvchilarining muvaffaqiyatli o'qishi uchun ayrim o'quv fanlari doirasiga kirmaydigan boshqa bir harakat zarur.

Bu harakatlarning ko'pchiligi nafaqat o'quv, balki mehnat sport va boshqa faoliyatlar uchun ham zarurdir. Bolaning maktabga kirishi paytida qator yo'nalishlarda nazoratlarni amalga oshirish kerak bo'ladi. Umumiy

hulq ko'nikmalaridan boshlab to miqdoriy tasavvurlashga bo'lgan tayyorgarliklarni aniqlash kerak. Agar bolada bu malaka va ko'nikmalar maktabgacha shakllanmagan bo'lsa, bola mehnatni muvaffaqiyatli o'zlashtirishi mumkin emas.

Bolaning bu maktabda tayyorlashda bola hulqini tarbiyalash, sanash real odamdagi narsalar o'rtasida miqdoriy va fazoviy munosabatlar to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirishda bolalar bog'chalari maktab va otanalar doimiy g'amxo'rlik qilishlari kerak.

Kichik yoshdagi o'quvchilarni o'quv faoliyatida kodlashtirish, sxemalashtirish va modellashtirish muhim ahamiyatga yega.

Masalalar yechishda yechish rejasining sxemasini chizish va qaralayotgan manbaaning modelini yasash yechimini tezlashtiradi. Bolaning aqliy faoliyatini kuchaytiradi. Maktabgacha davrning so'nggi bosqichida kichikintoylar modellashtirishning quyidagi uchta turi bilan bemalol ishlaydilar.

1. alohida qaralayotgan manbaalarning tuzilishini aks yettiruvchi modellar.

2. manbaalar sinfini tuzilishini aks yettiruvchi modellar.

3. ko'rsatmali munosabatlarsiz shartli belgilar bilan akslantiruvchi modellar; bu turdagi modellardan birinchi sinfda dastlabki darslarda ham bemalol foydalanish mumkin.

2.2. Mehnat fanidan dars ishlanmasi

Mavzu: Tugma qadash

I. Darsning maqsadi:

- a) **Ta'limiy maqsad:** o'quvchilarga tugma qadash yo'l yo'riqlarini va texnika qoidalariga rioya qilishni o'rgatish.
- b) **Tarbiyaviy maqsad:** o'quvchilarni mehnatkash qilib tarbiyalash.
- c) **Rivojlantiruvchi maqsad:** o'quvchilarning tikish-bichish bilan bog'liq bilimlarini rivojlantirish.


II. Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

III. Darsning usuli: ommaviy va suhbat.

IV. Darsning jihozi: ko'rgazmali rasmlar, igna, ip, qaychi, gugurt, mato, hamda tugma.

V. Darsning borishi:


- a) **Tashkiliy qism.** O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashuvi, uning davomatini tekshirishi, xona tozaligini ko'zdan kechirishi va o'tgan mavzuni so'rab mustahkamlashi bilan boshlanadi.
- b) **Asosiy qism:** Aziz o'quvchilar bugun sizlar bilan tugma qadashni o'rganamiz. Tugma qadashni o'rganish uchun bizga, igna, ip, qaychi, gugurt donasi, mato, hamda tugmalar kerak bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilar bilan birga tugma qadashga kirishadi. Avvalo, matoni biz o'zimizga qulay qilib, qaychi yordamida kesib olamiz. Keyin tugmani matoga chiroyli qilib kerakli joyga joylashtiramiz. Tugma bilan mato oralig'iga gugurt cho'pini joylashtiramiz. Bu tugma bilan matoning bir-biriga tortishib yopishib qolmasligi uchun.



O'qituvchi o'quvchilarga tugma qadalishini o'zi ko'rsatadi. Keyin o'quvchilar bilan birgalikda tugma qadashga kirishadi. O'qituvchi o'quvchilar ishlarini kuzatib, kamchiliklarini to'g'rilab boradi.

VI. Darsning yakuni: o'qituvchi darsda faol qatnashgan uy ishini na'munadagidek qilib bajargan o'quvchilarni rag'batlantiradi.

Tayyor eskiz



Fasillar kelinchagi bahor

Mavzu: “Navro’z bayrami”

I. Darsning maqsadi:

a). Ta’limiy maqsad: qog’ozni buklash yelimplash, bo’yab bezatish orqali osma o’yinchoqlar tayyorlay olish malakalarini yanada rivojlantirish.

b). Tarbiyaviy maqsad: milliylik ruhida tarbiyalash, “Navro’z bayrami”miz haqida ma’lumot berish.

c). Rivojlantiruvchi maqsad: maktabda o’tkaziladigan bayramga o’z hissasini qo’sha olishdan baxtli bo’lish.

II. Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

III. Darsning usuli: amaliy, ijodiy, suhbat.

IV. Darsning jihozi: gul va osma o’yinchoqlar tayyorlash bosqichi tasvirlangan tablitsa, rangli va karton qog’ozlar, yelim, ip, latta, mo’yqalam, guash bo’yog’I, qurigan daraxt shoxchasi va h.k.

V. Darsning borishi:

a).Tashkiliy qism: O’qituvchi o’quvchilar bilan salomlashuvi, uning davomatini tekshirishi, xona tozaligini ko’zdan kechirishi va o’tgan mavzuni so’rab mustahkamlashi bilan boshlanadi.

b).Asosiy qism: dars ikki soatga mo’ljallangan.shuning uchun bir darsda o’quvchilar topshiriqni qayeriga kelsa o’sha joyidan to’xtadi va kelgusi darsda huddi o’sha joydan davom ettiradi. Darsning boshlanishida o’qituvchi o’quvchilar bilan “Navro’z bayrami” haqida sa vol-javob qilib ularning bilim hamda tasavvurlarini bilib olib, bilmagan jihatlarin I yoritib beradi. Albatta qisqacha. So’ng shu bayramni yanada chiroyli o’tkazish uchun gullar, turli xil bezaklar tayyorlash taklifini bolajonlarga aytadi. Bu borada o’zi yordamlashishini aytadi.

Huddi shunday o’yinchoqlardan na’munalar namoish etadi.

Kvadrat qog'ozni buklash orqali sakkiz, olti, to'rt, besh, tomonli gul tasvirlarini qirqish tartiblarini amaliy ravishda ko'rsatadi va buni o'quvchilar ham birgalikda bajarib boradilar. yasalgan gullarning rang-barang bo'lishligi uchun qizil, sariq, havo rangdagi qog'ozlar tanlanadi.

O'quvchilar gul tasvirini qirqish yo'llarini yaxshi o'zlashtirib olganlaridan keyin o'zlari mustaqil ravishda boshqacha tuzilishdagi gul tasvirini qirqishga o'tishlari mumkin. Dars jarayonida o'qituvchi bolalarning ishlarini kuzatib boradi va kerakli yo'l-yo'riqlar berib turadi.

Rangli qog'ozlardan qirqib yasalgan gul tasvirlarining o'rtasiga boshqacha rangdagi qog'ozlardan doiracha qirqib yopishtirsa, chiroyligul xosil bo'ladi. Endi ularni daraxt shoxchasiga yashil rangdagi barglar bilan birga yopishtirib qo'yish orqali gullagan daraxt shoxchasini tayyorlash mumkin. Tayyor gularni to'g'ridan- to'g'ri devorga igna yoki knopka yordamida qadab qo'yish ham yaxshi natija beradi. O'qituvchi oralab yurib, o'quvchilarga kerakli yordam berib boradi.

c) Mustahkamlash: shu mavzu bo'yicha suhbat o'tkazish.

e) Uyga vazifa berish: huddi shunday bezaklar yaratib kelishni aytish.

VI. Darsning yakuni: hayirlashib sinf xonasidan chiqib ketish yoki bolajaonlarga tanafuz berish.

O'zbek milliy qadriyatleri va hunarmanchiligi

Dars mavzusi: Do'ppi shaklini yasash

I. Darsning maqsadi:

a). Ta'limiy maqsad: turli materillar bilan ishlash, do'ppi shaklini yasayotganda uning tomonlarini hisobga olishni o'rgatish.

b). Tarbiyaviy maqsad: ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, milliylik ruhini bolajonlarga singdirish, ota-bobolarimizdan qolgan urf-odatlar, an'analarga munosib farzand qilib etishtirish.

c). Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning tasavvurini kengaytirish hamda dars jarayonini to'g'ri tashkil etish.

II. Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

III. Darsning usuli: ko'rgazmaliylik, suhbat, kuzatish.

IV. Darsning jihozi: qog'oz, qaychi, yelim, qalam, karton, chizg'ich...

V. Darsning borishi:

a).Tashkiliy qism: O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashuvi, uning davomatini tekshirishi, xona tozaligini ko'zdan kechirishi va o'tgan mavzuni so'rab mustahkamlashi bilan boshlanadi.

O'qituvchi bergan vazifalarini bolajonlardan so'rab, ularni bajargan vazifalariga to'g'ri yondashib baholash.

b).Asosiy qism: bugun biz siz bilan do'ppi shaklini yasashni o'rganamiz. Mana bu do'ppi yasashga biz uchun na'munas deb oldindan yasalgan do'ppi maketini ko'rsatish va do'ppi shaklini tahlil qilamiz.

-do'ppi shakli haqida nimani bilasiz?

-do'ppi shakli nimadan yasalgan?

-do'ppining asosi qanday shaklda?


-uni yana qanday materiallardan yasasak bo'ladi?

Siz endi do'ppi shaklini yasashni o'rganinglar:

Avval qog'oz olib do'ppi andozasini yasaymiz. Buning uchun qog'ozni olib chizg'ich bilan o'lchab olamiz, yasamoqchi bo'lgan bo'lgan shaklga solamiz. Avval asosni qirqib olamiz



So'ngra ustini qirqib olamiz.



Keyin esa avval asoslarini, keyin ustini yopishtiramiz.



So'ngra esa andozamizdan kartondan ham shakllar qirqib, yopishtirib do'ppi shaklini xosil qilamiz.

Shunday qilib do'ppi shaklini yasashni bolalarga o'rgatib turish lozim. Ular esa asta sekin yasay boshlaydi. O'qituvchi o'quvchilarning qilayotgan ishlarini kuzatib chiqadi, kimda-kim xatoga yo'l qo'yayotgan bo'lsa unga yordam berib to'g'ri yo'nalishga soladi.

d) Mustahkamlash:

Bugungi mavzu yuzasidan bolajonlarni qiziqtirgan savollarini so'rash, har bir savolga aniq javob berish va ularga ba'zi bir elementar savollarni berish.

e) Uyga vazifa berish: qilayotgan ishlarini uyda tugatib kelishni topshirish, milliy ashyolarimizga qanday buyimlar kirishini o'quvchilar yozib kelishini vazifa sifatida topshirish.

VI. Darsning yakuni: bolajonlar bilan hayirlashish.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, boshlang'ich sinf o'qituvchisi donishmand ustoz, yetuk ruhshunos, dunyoqarashi keng mutaxassis, bilimdon va ilg'or pedagogik mahoratli tarbiyachi, asosiysi – bag'ri keng, mehri daryo inson bo'lmog'i lozim. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf muallimlari – tayyorlovchilardir.

Endigi vazifa o'qituvchi shaxsini ezgu fazilatlar bilan boyitish va bu o'quvchilarni tarbiyalashga ham keskin ta'sir etishi tayin. Bundan tashqari o'qituvchilarning pedagogik mahorati, ilg'or pedagogik texnologiyalarni ularning amaliy faoliyatiga olib kirish muammosi ham muhim masala hisoblanadi. Negaki. Uning mashaqqatli ishining natijasi shogirtlari egallagan bilimlari ko'lami bilangina emas, balki ularning xulq atvori va shaxsida namoyon etgan ma'naviy axloqiy, ezgu insoniy fazilatlar bilan o'lchanishi shart.

Yuqoridagi ko'rsatilgan talablar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatini yanada samarali bo'lishi uchun qanday uslublardan foydalanish, tanlangan texnologiya uslub, o'rganilgan tajribalar ushbu ishda yaratilgan. Ish asosan kirish, ikki bobdan, har bir bob bir necha paragrafdan va xulosadan iborat.

O'quvchilarda bilish faoliyatini shakllantirish uchun ishning samaradorligi ko'p jihatdan o'quv jarayonini boshqacha bilishda ko'rinadi. Darslarni faqatgina shablon usulida rejada ko'rsatilgan mavzuni o'tib berish bilan cheklanib qolmasdan ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda vaqtdan unumli foydalanib o'tiladigan mavzuni har bir o'quvchining ongiga yetarlicha singdirishga harakat qilish zarur.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining ijodkorligini shakllantirish – ularning bilish faoliyatlarini rivojlantiruvchi asosiy manbalardan hisoblanadi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining barcha o'quv faoliyatlari qat'iy maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, unda o'quvchilar o'qish, yozish va sanash malakalariga ega bo'lishi va ong bilim darajasi kengayib borishi, bilishga qiziqishlari rivojlanishi shakllanadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarni mehnat faniga qiziqitirgan va shu fanni yetarlicha o'quvchilarga yetkaza olgan o'qituvchi, ustoz, boshqa fanlarni o'rgatishga hech qiynalmaydi.

O'quvchilarni fanga qiziqitirish uchun men ko'proq darsdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazishni o'zining uslubimga kiritdim. O'tilgan yangi mavzuga bog'lab, uning tarixiy ahamiyatlari to'g'risida, hayotdagi o'rni haqida va aynan o'sha mavzularda ish olib borgan ulug' allomalarimiz hayoti va ijodidan o'quvchilarga ma'lumot berdim. Bu uslub ish jarayonimda o'zining yaxshi samarasini berdi. Menimcha har bir boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi o'zining ish faoliyatida shu uslubdan foydalansa albatta yaxshi ko'rsatgichlarga erishadi. Men shu malakaviy bitiruv ishini yozishda va uni amalda turli tajribalar bilan sinab ko'rishda yaqindan yordam berib, maslahatlarini ayamagan ustozlarimga minnatdorchilik bildiraman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. 1997 yil T.,“Sharq” nashriyoti)
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: “Ma'naviyat”. 2009.
3. I.A.Karimov “Barkamol avlod orzusi” 2000 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. – T.: 1997 y.
5. I.A.Karimov O'zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., “O'zbekiston”
6. R.A.Mavlonova ,O.T.To'rayeva , K.M.Xoliqberdiyev “Pedagogika” T., “O'qituvchi” 1998 yil
7. X.Sanaqulov ,M.Haydarov “Boshlang'ich sinflarda qog'ozdan amaliy ishlar” 1996 yil
8. R.A.Mavlonova ,Garoxova,Ogluzdina O., “Mehnat ta'lim metodikasi” T., “O'qituvchi” 1986 yil
- 9.Shumulevich N.M.“Qog'ozdan texnik modellar yasash” T.,“O'qituvchi” 1989 y
10. Vorobyov A.Sh. “Konstruktorlik va modelleshtirish” T., “O'qituvchi”1989 yil
11. R.Mavlonova “Birinchi sinf mehnat darslari” T. “O'qituvchi” 1986 yil
12. R.Mavlonova “Ikkinchi sinf mehnat darslari” T.”O'qituvchi” 1987 yil.

13. R.Mavlonova, G.Maxmudova “Mehnat” Ikkinchi sinf o’quvchilari uchun darslik. T. “O’qituvchi” 1992 yil.
14. R.Mavlonova, G.Maxmudova “Mehnat” Uchinchi sinf o’quvchilari uchun darslik. T. “O’qituvchi” 1993 yil.
15. R.Mavlonova, I.Mannopova “Mehnat” To’rtinchi sinf o’quvchilari uchun darslik. T. “O’qituvchi” 1995 yil.
16. R.Mavlonova “Turtinchi sinfda mehnat darslari” T.”O’qituvchi” 1989 y.
17. R.Hasanov, H.Egamov “Tasviriy sa’nat va badiiy mehnat”T. “O’qituvchi” 1997 yil.
18. Perevertenv. “O’quvchilarda ijodkorlikni shakillantirish”.T. “O’qituvchi”. 1990y.
19. P.Magzumov. ”O’quvchilarning mehnatga tayyorgarlik bo’yicha bilim va ko’nikmalari sifati”.T. 1994y.